

Соат 14	30-32 ⁰	Қандалалар сояли томонга ва барг остларига кирмоқда, ўсимликнинг сиртида жуфтлашаётган 6 жуфт <i>E.wilkinsi</i> қолди
Соат 15	34-36 ⁰	Ўсимлик сиртида битта ҳам қандала қолмади. Барчаси барглари остида
Соат 17	29 ⁰	Қандалалар ўсимлик сиртига чиқа бошладилар
Соат 18	25 ⁰	Барча қандалалар олдингидек ўсимлик сиртида, озикланмоқдалар ва жуфтлашмоқдалар
Соат 19	20 ⁰	Барча қандалалар тунга тайёрланиб беркиниб бошладилар. <i>E. marasandica</i> нинг 8 жуфти қолди.
Соат 20	16 ⁰	Барча қандалалар пана жойда
Соат 22	14 ⁰	Олдинги ҳолат

Шуни ҳам айтиш керакки, куёш чиқиши билан қандалалар ўсимликнинг ёритилган томонида тўпланадилар, бу ерда улар соат 9-10 ларгача бўладилар, озикланишдан тўхтаб қизинадилар. Булутли об-ҳавода куёш булут орқасига ўтганда ҳатто қулай ҳароратда ҳам қандалалар пана жойга яширинадилар.

Атроф муҳит шароитлари бир хил бўлганда иккита тур хулқи бир биридан фарк қилади. *E. marasandica* олдин айтилганидек унчалик иссиқликни хуш кўрмайди ва ҳаракатчанлиги катта, *E.wilkinsi* эса иссиқликсевар ва кам ҳаракатчан. Охиргини тутиш осон, айниқса тухум қўйиш вақтида.

Фойдаланилган адабиёт

1. Винакуров.Н.Н , Конюкова.Е.В “Палужесткоккрылые насекомие”
Сибири- Новосибирск наука 1995.-234ц

BOLALAR QAD-QOMATINING BUZILISHI VA UNI OLDINI OLISH

ilmiy xabar b.f.n. Babadjanova S. X.

Siddiqov X.T.

Biologiya 1-bosqich magistranti

Qomatning buzilishini aniqlashda bola organizmida mavjud bo'lgan, muvozanatga ta'sir qiluvchi patologiyaga (ko'rishning yomonligi, quloqlardan bittasining garangligi, nafas olishning buzilishi) ahamiyat berish kerak. Bolalarda harakat faolligining o'zgarishi natijasida (o'qish boshlanib, maktabda o'qiy boshlaganda) va juda tez o'sish, jinsiy balog'atga yetish davrida qomatning buzilishi yuzaga keladi va rivojlanadi. Organizmda hech qanday patologik o'zgarishlar bo'lmasdan qomat buzilgan bo'lsa, shifokor, eng avvalo, uning sababini (katta bo'g'implarning kontrakturasini aniqlashdan boshlab) topishi kerak. Chanoq-son bo'g'implari kontrakturasiga katta dumba mushaklari kuchsizligi, sonni yozuvchilarning giperfunkstiyasi yoki quymich-son (bertini) boylamining qisqarishi sabab bo'lishi mumkin.

Chanoq-son bo'g'imi kontrakturasini Tomas simptomi bilan tekshiriladi. Buning uchun bemor chalangacha yotgan holatda bukilgan oyog'ini qorniga qo'yadi, Shunda son oyoq kontrakturaning burchagigacha ko'tariladi. Patologik qomatni aniqlash uchun V.Dega tomonidan 31 test-savollar taklif qilingan. Bunda bemor to'g'risidagi umumiy ma'lumotdan (bo'yi, tana og'irligi va boshqalar) tashqari, maxsus tekshirish natijalari va ko'rinadigan o'zgarishlar (qorinning katta-kichikligi, oyoq panjasi gumbazining yassilanishi va boshqalar) kirgan bo'lib, tekshirish funksional (o'pkaning hayotiy sig'imi va boshqalar) testlar bilan to'ldiriladi. Qad-qomatning

buzilishini aniqlash usullari juda ko'p bo'lib, amaliy ish uchun bola qomatining chanoq suratini olish kifoya qiladi.

Kifoz — umurtqa pog'onasi ko'krak qismining VII ko'krak umurtqasida orqa tomonga ko'proq bukilishi. Bola ko'zdan kechirilganda frontal sathda umurtqalarning qirrali o'simalari o'rta chiziqdan qisman o'tganligini aniqlash mumkin

Asimmetrik qomat — mushaklarning taranglashishi hisobiga to'g'rilanuvchi umurtqa pog'onasining frontal sathi bo'yicha funksional zaif og'ishi. qomatning bu turdagi buzilishi darajali skoliozdan rentgen suratida aniqlanadigan o'zgarishlarning umurtqada yo'qligi bilan farqlanadi.

Organizmدا hech qanday patologik o'zgarishlar bo'lmasdan qomat buzilgan bo'lsa, shifokor, eng avvalo, uning sababini (katta bo'g'imlarning kontrakturasini aniqlashdan boshlab) topishi kerak.

Skolioz (skolioz kasalligi) — umurtqa pog'onasining umurtqa tanalarining majburiy aylanishi (rotatsiyasi) bilan birga sodir bo'ladigan yon tomonga qiyshayishidir. Uning o'ziga xos xususiyati — bolaning yoshi va o'sishiga qarab zo'rayib borishidir. Etiologiyasi va patogeneziga ko'ra skoliozning quyidagi: tug'ma (jumladan displastik), nevrogen, statik va idiopatik turlari farqlanadi.

Tug'ma skoliozning paydo bo'lishiga umurtqa suyak skeletidagi o'zgarishlar natijasida rivojlangan deformatsiya: qovurg'alarning bir tomonlama sinostozi, qo'shimcha qovurg'a va yarim umurtqa, qirrali yoy o'simalarining sinostozi, umurtqa yoyi ildizlari nuqsoni, bel-dumg'aza sohasining displaziyasi sabab bo'ladi.

Displastik skoliozning paydo bo'lishiga spondiloliz, umurtqa yoyi ildizlarining bitmasligi, bir tomonlama sakralizastiya yoki lyumbalizastiya sabab bo'ladi. Tug'ma kelib chiqishining umumiyliги etiologik jihatdan bu ikki tushunchani tug'ma skoliozning bitta turiga birlashtiradi.

Nevrogen skolioz asosan poliomielit bilan og'rish natijasida paydo bo'ladi. Uning sababi orqa mushaklari va qorin qiyshik mushaklari tomonidan muvozanatning buzilishidir. Shuningdek bundan tashqari, nevrogen skolioz guruhiga miopatiya, siringomieliya, neyrofibromatoz, spastik falajdan keyingi skoliozlar ham kiritiladi.

Statik skolioz aksariyat oyoq bo'g'imining shikastlanishi (ankiloz, son bo'g'imining tug'ma chiqishi va boshqalar) tufayli paydo bo'ladi va oyoqning kalta bo'lib qolishi natijasida umurtqa pog'onasining turg'un o'zgarishi sodir bo'ladi.

Idiopatik skolioz - eng ko'p tarqalgan bo'lib, kelib chiqishi hozirgacha noma'lum. Ayrim mualliflar raxitik skoliozni idiopatik skoliozga qo'shishadi. Lekin bir qator biokimyoviy jarayonlarning xususiyatlari idiopatik skoliozning asosida gormonal sabab borligini tan olishga imkon berdi. Ko'pchilik mualliflar esa bu turdagi skoliozda asab-mushak muvozanatining buzilishini e'tirof etib, kasallikning kelib chiqish sababi poliomielit yoki qandaydir neyrodistrofik (ayniqsa, mushak to'qimasida) jarayonda deb hisoblaydilar. Shuning uchun ba'zi ortopedlarning idiopatik skoliozni displastik va tusha skoliozlar bo'limiga kiritishga moyilliklari tushunarlidir.

Skoliozlar oilaviy (irsiy) va raxit tufayli paydo bo'lgan skoliozlarga bo'linadi. Xozirgi vaqtda M.V.Volkov, E.K.Nikiforova va A.F.Kaptelinlar tomonidan qad-qomatlarning buzilishi (skolioz) turlari taklif etilgan tasnif eng ma'qul tasnifdir. Ular skolioz bilan og'rigan hamma bemorlarni ikki guruhga: tug'ma va orttirilgan guruhlariga bo'ladilar. Tug'ma skoliozlarga umurtqa rivojlanishining tug'ma anomaliyasi, bel-dumg'aza qismining displaziyasi, oilaviy skolioz va boshqalar, orttirilgan skoliozlarga esa raxitdan, falajdan keyingi statik va idiopatik skoliozlar kiradi deb hisoblaydilar. Talabalar skolioz va tug'ma deformatsiya kasalliklari etiologiyasi, patogenezi, klinik kechishi, bundan tashqari skolioz haqida tushuncha tug'ma deformatsiya va skoliozning formalari, skoliozning birinchi ko'rinishi skolioz va orttirilgan deformatsiya, skoliozning rivojlanishi, davolash usullari va profilaktikasi haqida bilib oladilar. Bu mavzu orqali talabalarga ish faoliyatida uchrovchi bu kasalliklar bo'yicha amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi va ish faoliyatini to'g'ri tashkillashtirishiga yordam beradi. Talabalar skolioz va tug'ma deformatsiyalar mavzusi haqida to'liq tasavvurga va to'liq ma'lumotga ega bo'lish bu kasalliklarni davolashni to'g'ri olib

borish, zamonaviy davolash usullarini ishlab chiqish hamda kasalliklarni oldini olishga yordam beradi.

СОВРЕМЕННЫЙ МЕТОД «ИЗУЧЕНИЯ» ЭКОЛОГИИ

Аллабергенова Дилафруз
(ассистент преподаватель кафедры «Естественных и общепрофессиональных наук»
ТУИТ УФ)

Бахтиёрова Гуласал Бахтиёр кизи
(студентка 1-го курса ТУИТ УФ)

Научно-технический и социальный прогресс повысил спрос и удовлетворение растущих потребностей людей в веществах, обеспечивающих комфортность жизни, но одновременно создал глобальные проблемы, в том числе и экологические. Последние вызваны не только загрязнением окружающей природной среды, но и низкой химической и экологической культурой населения. Чтобы выжить, человечество в начале 3-го тысячелетия вынуждено искать достойный ответ на «экологический вызов» цивилизации XX века.

Одним из главных факторов устойчивого развития государства признано образование, которое формирует основные жизненные принципы и критерии человеческой деятельности. Проводимая в настоящее время модернизация общего образования, призвана повысить качество и эффективность естественнонаучного образования, внести вклад в межпредметную интеграцию, в формирование общей и экологической культуры, во всестороннее развитие личности учащихся.

Между тем, хотелось бы подчеркнуть что, ежегодные расходы на образование в Узбекистане составляют порядка 10-12 процентов к ВВП, что почти в 2 раза превышает соответствующие рекомендации ЮНЕСКО (6-7 процентов) по размерам инвестиций в образование, необходимых для обеспечения устойчивого развития страны. В концепции образования подчеркивается, что химия – одна из немногих естественных наук, которая играет центральную роль при комплексном рассмотрении природы, общества и человека.

В основу усиления прикладного аспекта на наш взгляд должны быть положены технологические подходы, активизирующие самостоятельность и познавательную деятельность учащихся. Ведущая роль отводится активным методам и формам обучения: проблемным методам, ученическому эксперименту, ролевым играм и т.д. К числу активных методов обучения относится и решение задач.

Примеры задач экологического содержания:

1. Площадь зеленых насаждений на одного жителя Белгородской области на 1 января 2005 г составила в: Белгороде –98.5, Новом Осколе –176.7, Старом Осколе–301.8, Шебекино–89.5 м². Учитывая, что 1 га леса в сутки дает примерно 10 кг кислорода, а человек за это же время поглощает примерно 700 г, рассчитайте, достаточно ли этих насаждений для нормальной жизнедеятельности населения этих городов? Определите нормативную площадь озеленения на одного жителя.

2. Жизненно важной задачей является сохранение баланса молекулярного кислорода в воздушной среде. Котельная сжигает 2 тонны каменного угля в сутки. Состав угля: С – 84%, Н – 5%, Н₂O – 5%, S –3.5% по массе. Учитывая, что 1 га березового леса в год дает 725 кг кислорода, вычислите, с какой площади березового леса будет восполняться расходуемый на сжигание каменного угля в течение суток кислород?